

**Foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga
bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha
NAMUNAVIY TARTIB**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha Namunaviy tartib (keyingi o'rinlarda – Namunaviy tartib) Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarini namunaviy modeli (GSBPM – The generic Statistical Business Process Model) asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi)ning Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish milliy modelining **I. Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish** (keyingi o'rinlarda – Ehtiyojlarni o'rganish) **bosqichi** va uning **jarayonlarini** milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Namunaviy tartib bir yillik statistika dasturlariga asosan ishlab chiqiladigan va tarqatiladigan rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun barcha darajadagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish mexanizmlarini belgilab beradi.

3. Namunaviy tartib Ehtiyojlarni o'rganish bosqichi jarayonlarini **Statistika agentligi** misolida amalga oshirish tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi hamda kelgusida milliy statistika tizimining bir qismi bo'lgan, statistika dasturlariga muvofiq, statistika ma'lumotlarini tayyorlaydigan davlat boshqaruvi organlari va (yoki) ularning bo'linmalari (keyingi o'rinlarda – rasmiy statistikani tayyorlovchilar) tomonidan o'z vakolatlari doirasida rasmiy statistikani ishlab chiqish amaliyotida qo'llash uchun mo'ljallangan.

4. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichi milliy statistika tizimida amalda ishlab chiqilayotgan statistika ma'lumotlarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini, statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning mavjud, yangi va (yoki) qo'shimcha statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniq belgilash bilan bog'liq barcha ishlarni o'z ichiga oladi.

5. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining maqsadi:

foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini, statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish bo'yicha milliy va xorijiy tavsiyalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini o'rganish va ko'rib chiqish;

dolzarb bo'lmagan statistika kuzatuvlarini bekor qilish, yangi kuzatuvlarni tashkil etish va (yoki) amaldagi kuzatuvlarni takomillashtirish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

axborot bazalarini integratsiyalash va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni taqdim etuvchilar bilan kelishuvlar imzolash orqali ma'muriy yoki boshqa manbalardan ma'lumotlar olish masalalarini ko'rib chiqish;

rasmiy statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish va tarqatish bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlash va qabul qilishdan iboratdir.

6. Statistika agentligining Statistika kengashi (keyingi o'rinlarda – Statistika kengashi) tomonidan tasdiqlanadigan bir yillik statistika dasturi (keyingi o'rinlarda – Statistika dasturi) statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistik hisob-kitoblarni amalga oshirish, rasmiy statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish va belgilangan tartib asosida tarqatish uchun huquqiy asos hisoblanadi.

7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, statistika idoralari faoliyatiga joriy etilishi tavsiya etilgan "Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarini namunaviy modeli" (GSBPM) hamda "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablarining o'zaro uzviy bog'liqligi va bir maqsadga yo'naltirilganligi sababli, mazkur Namunaviy tartibga asosan ishlarni tashkil etishda Statistika agentligi tomonidan GSIM modelini joriy etish doirasida tasdiqlangan "Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi"ning namuna jadvalaridan bevosita foydalaniladi.

2-bob. Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish bosqichining jarayonlari

8. Ehtiyojlarni o'rganish Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelini milliy statistika tizimiga joriy qilishning dastlabki va hal qiluvchi bosqichi hisoblanib, ushbu Namunaviy tartibga 1-ildovada keltirilgan blok-sxema asosida hamda 2-ildovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagi **oltita jarayonni** o'z ichiga oladi:

- 1) foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash;
- 2) foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish va ehtiyojlarni tasdiqlash;
- 3) statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadlarini belgilash;
- 4) talab etiladigan statistika ma'lumotlari ro'yxatini aniqlash;
- 5) taklif etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish;
- 6) statistika ma'lumotlarini shakllantirish modelini ishlab chiqish.

9. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining jarayonlari barcha toifadagi milliy va xorijiy foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini batafsil o'rganish orqali kelgusida ishlab chiqiladigan statistika ma'lumotlarining mazmuni, tarkibi, manbalari, davriyligi, taqdim etish shakli va muddatlarini aniqlash hamda pirovardida foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va tasdiqlashni ko'zda tutadi.

10. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining jarayonlari qoidaga ko'ra bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ehtiyojlarni o'rganish bosqichining har bir jarayoni o'zaro uzviy bog'liq bo'lganligi va pirovard natijaga yo'naltirilganligi sababli, ular parallel ravishda yoki olingan natijalarni tahlil qilish natijasida avvalgi jarayonlarga tuzatish kiritish orqali tashkil etilishi ham mumkin.

11. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining jarayonlarini amalga oshirishda, ma'lumotlardan foydalanish va ularning umumiy xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlar va hujjatlar arxivini yuritish, ularni saqlash va yo'q qilish qoidalariga doimiy ravishda amal qilinishi lozim.

3-bob. Foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash

12. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining birinchi jarayoni barcha toifadagi milliy va xorijiy foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hamda ushbu ma'lumotlarning qachon, qanday shaklda kerakligini va nima maqsadlarda ishlatilishini aniqlashni ko'zda tutadi.

13. Ehtiyojlari aniqlanadigan foydalanuvchilar toifasiga quyidagilar kiradi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi;
- b) xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar idoralari va fuqarolari;
- d) respublika vazirlik va idoralari;
- e) Statistika agentligining tarmoq statistikasi boshqarmalari;
- g) boshqa jismoniy va yuridik shaxslar.

14. Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash:

to'g'ridan-to'g'ri yoki axborot-kommunikatsiya vositalari (internet, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, pochta aloqasi va b.) orqali kelib tushgan takliflarni tahlil qilish;

muayyan foydalanuvchilarga bevosita murojaat qilish orqali ularning takliflarini so'rash;

foydalanuvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali tashkil etiladi.

15. Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilishda ular tomonidan so'ralayotgan ma'lumotlarning mazmuni, davriyligi, dolzarbligi, respublika va viloyatlar darajasida ahamiyatga ega ekanligi hisobga olinadi.

16. Foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash ishlari har yili, o'tgan kalendar yilining 1-iyulidan joriy yilning 1-iyuligacha bo'lgan davrda kelib tushgan takliflarni qamrab olgan holda amalga oshiriladi.

17. Foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash natijalari asosida:

statistika kuzatuvlari shakllari yuzasidan kelib tushgan takliflar bo'yicha – ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 1-namuna jadvalga muvofiq;

statistika dasturiga kiritish va (yoki) taqdim etish uchun taklif etilayotgan statistika ma'lumotlari (ko'rsatkichlar) bo'yicha – ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 2-namuna jadvalga muvofiq tahliliy jadvallar shakllantiriladi.

Zarur hollarda, aniqlash natijalarini yanada puxta va batafsil yoritish maqsadida qo'shimcha tahliliy ma'lumotlar ham shakllantirilishi mumkin.

18. Milliy va xorijiy foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash va tahlil etishda, aynan shu kabi statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar statistika idoralarining amaliyoti hamda ular tomonidan qo'llanilayotgan uslublarni o'rganishlar ham amalga oshiriladi.

1-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining ehtiyojlarini aniqlash

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash:

O'zbekiston Respublikasi kodekslari va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari bilan statistika sohasi oldiga belgilab berilgan vazifa va topshiriqlarni tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasidan kelib tushgan so'rovlar bo'yicha yangi turdagi qo'shimcha talab etilgan statistika ma'lumotlari ro'yxatini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borilayotgan statistika ma'lumotlari tarkibi, mazmuni hamda ulardagi o'zgarishlar tendensiyasini o'rganib chiqish bilan bog'liq tadbirlarni o'z ichiga oladi.

20. Ehtiyojlarni aniqlash ishlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlarida belgilangan vazifalar bo'yicha – ijrosiga mas'ul bo'lgan Statistika agentligi boshqarmalari tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasidan kelib tushgan so'rovlar bo'yicha – Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari tomonidan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha – Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

2-§. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar idoralari va fuqarolarining ehtiyojlarini aniqlash

21. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar idoralari va fuqarolari (keyingi o'rinlarda – xorijiy foydalanuvchilar) ehtiyojlarini aniqlash:

xalqaro tashkilotlarning alohida savolnomalari asosida taqdim etilayotgan rasmiy statistika ma'lumotlarini tahlil qilish;

Barqaror rivojlanish maqsadlari va gender ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun yig'ilayotgan ma'lumotlar tarkibini o'rganish;

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT) doirasida yangilanishi va taqdim etilishi lozim bo'lgan rasmiy statistika ma'lumotlarini o'rganib chiqish;

xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlar bazasida va xalqaro reytinglarda yoritish uchun xalqaro hamjamiyatga taqdim etilayotgan rasmiy statistika ma'lumotlarining tarkibi va mazmunini o'rganish;

xorijiy davlatlarning idoralari va fuqarolaridan rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish to'g'risida kelib tushayotgan so'rovlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

22. Ehtiyojlarni aniqlash ishlari:

a) Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi tomonidan tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

xalqaro tashkilotlarning savolnomalari bo'yicha;

XVJning k-MTUT tizimi doirasidagi statistika ma'lumotlari bo'yicha;

xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlar bazasida e'lon qilish uchun taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha;

xorijiy davlatlarning idoralari va fuqarolaridan kelib tushayotgan so'rovlar bo'yicha;

b) Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha;

d) Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi tomonidan gender statistikasini shakllantirish uchun taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha;

e) Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi tomonidan xalqaro reytinglarda yoritish uchun xalqaro hamjamiyatga taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha tashkil etiladi.

3-§. Respublika vazirlik va idoralari ehtiyojlarini aniqlash

23. Respublika vazirlik va idoralarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – o'tgan bir yil davomida respublika vazirlik va idoralaridan kelib tushgan so'rovlar asosida taqdim etilgan va ularni eng ko'p qiziqtirgan statistika ma'lumotlari (ko'rsatkichlar) tarkibi o'rganiladi;

ikkinchi bosqich – respublika vazirlik va idoralari hamda hududiy statistika organlaridan amaldagi statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi bo'yicha kelib tushgan takliflar o'rganib chiqiladi.

24. Ikkinchi bosqichda ishlarni tashkil etish vazirlik va idoralar, jumladan rasmiy statistikani tayyorlovchilar, ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar, zarur hollarda boshqa idora va tashkilotlarga amaldagi statistika kuzatuvlari shakllari bo'yicha takliflar berish yuzasidan har yili may-iyul oylarida so'rovlar yuborish hamda (yoki) ulardan kelib tushgan takliflarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Bunda, Statistika agentligining muayyan statistika kuzatuvlari shakllari bilan ishlashga mas'ul bo'lgan tarmoq boshqarmalari tomonidan statistika kuzatuvlari shakllari bevosita aloqador bo'lgan vazirlik va idoralarga ularga tegishli bo'lgan shakllarni ilova qilgan holda so'rovlar yuboriladi va ulardan takliflar yig'ib olinadi.

Statistika dasturi bo'yicha vazirlik va idoralardan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha xulosalarni tayyorlash tegishliligiga ko'ra Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

25. Ehtiyojlarni aniqlash ishlari:

respublika vazirlik va idoralari bo'yicha – sohalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishga hamda Statistika dasturiga kiritilgan statistika ishlarining bajarilishiga mas'ul bo'lgan Statistika agentligining boshqarmalari tomonidan;

joylarda hududiy statistika organlariga kelib tushgan so'rovlar va takliflar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari (keyingi o'rinlarda – hududiy statistika boshqarmalari) tomonidan amalga oshiriladi.

26. Hududiy statistika boshqarmalari statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi bo'yicha ularga kelib tushgan hamda o'zlarida mavjud takliflarni har yili 15-iyulga qadar Statistika agentligining Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etadi.

Hududiy statistika boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan takliflar tegishliligiga ko'ra Statistika agentligining boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tahlil etiladi.

4-§. Statistika agentligining tarmoqlar statistikasi boshqarmalari ehtiyojlarini aniqlash

27. Statistika agentligining tarmoq statistikasi boshqarmalari ehtiyojlarini aniqlash:

rasmiy statistika sohasi oldiga belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda amaldagi statistik hisob-kitoblarni yanada takomillashtirish uchun boshqa tarmoq statistikasi boshqarmalari tomonidan taqdim etilishi zarur bo'lgan statistik ko'rsatkichlar ro'yxatini shakllantirish;

amaldagi statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturini takomillashtirish bo'yicha boshqa tarmoq statistikasi boshqarmalari tomonidan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi.

28. Ehtiyojlarni shakllantirish va aniqlash – Statistika dasturiga kiritilgan statistika ishlarining bajarilishiga hamda sohalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishga mas'ul bo'lgan Statistika agentligining tegishli tarmoq boshqarmalari tomonidan tashkil etiladi.

29. Statistika agentligi tarmoq statistikasi boshqarmalari tomonidan:

har yili 15-iyulga qadar o'zlari mas'ul bo'lgan soha statistikasi bo'yicha hisob-kitoblarni yanada takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ro'yxati shakllantirilib, Statistika agentligining tegishli tarmoq statistikasi boshqarmalariga taqdim etiladi;

amaldagi statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturini takomillashtirish bo'yicha boshqa tarmoq statistikasi boshqarmalari tomonidan kelib tushgan takliflar tahlil qilinadi va asoslantirilgan xulosalar tayyorlanadi.

5-§. Boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini aniqlash

30. Ushbu Namunaviy tartibning 3-bob 1-4-paragraflarida ko'zda tutilmagan boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini aniqlash:

jismoniy va yuridik shaxslardan statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri hamda Statistika agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan so'rovlarni tahlil etish;

statistika kuzatuvlari shakllarining mazmuni hisobot taqdim etuvchi respondentlarni qoniqtirishi bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarini tahlil etish;

foydalanuvchilarning taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlarining sifatidan qoniqish darajasini baholash bo'yicha Statistika agentligining rasmiy veb-sayti orqali o'tkazilgan so'rovlar natijalarini tahlil etish orqali amalga oshiriladi.

31. Ehtiyojlarni aniqlash ishlari:

to'g'ridan-to'g'ri, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan so'rovlar bo'yicha – ularning ijrosiga mas'ul etib belgilangan Statistika agentligining tegishli boshqarmalari tomonidan;

statistika kuzatuvlari shakllarining mazmuni hisobot taqdim etuvchi respondentlarni qoniqtirishi yuzasidan o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalari bo'yicha – Statistika agentligining kuzatuv shakllariga mas'ul bo'lgan boshqarmalari tomonidan;

statistika ma'lumotlarining sifatidan qoniqish darajasini baholash yuzasidan foydalanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalari bo'yicha – Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Statistika agentligining tegishli boshqarmalari tomonidan tashkil etiladi.

4-bob. Foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish va ehtiyojlarni tasdiqlash

32. **Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining ikkinchi jarayoni** doirasida foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini, jumladan ma'lumotlarni taqdim etish shakli va muddatlari bo'yicha ehtiyojlarini hamda ulardan kelgusida foydalanish maqsadlarini aniq bilish uchun manfaatdor tomonlar, xususan ichki va tashqi foydalanuvchilar bilan ularning avval aniqlangan ehtiyojlarini hisobga olgan holda maslahatlashuvlar o'tkaziladi va ularning ehtiyojlari tasdiqlanadi.

33. Ushbu jarayonda foydalanuvchilar ehtiyojlarini chuqur tushunilishiga erishish, ya'ni nafaqat qanday statistika ma'lumotlari talab etilayotganligi, balki ularni qaysi kesimda, qachon, qanday ko'rinishda va eng muhimi qaysi sabablarga ko'ra shakllantirish zarurligini aniqlash talab etiladi.

Mazkur jarayon kelgusida har gal takrorlanganda asosiy e'tibor avval aniqlangan ehtiyojlarning o'zgargani yoki o'zgarmaganligiga qaratiladi.

34. Ushbu Namunaviy tartibning 3-bobida belgilangan talablarga muvofiq o'tkazilgan ehtiyojlarni aniqlash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar Statistika agentligi markaziy apparatining ularning bajarilishiga mas'ul boshqarmalari tomonidan shakllantiriladi.

Zarur hollarda, o'rganishlar natijalarini yanada puxta va batafsil yoritish maqsadida qo'shimcha tahliliy jadval yoki ma'lumotlar ham shakllantirilishi va taqdim etilishi mumkin.

6-§. Ichki foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar

35. Ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 1-2-namuna jadvallar asosida shakllantirilgan tahliliy ma'lumotlar:

muayyan statistik ko'rsatkichlar hamda ishlarning mazmuni va yo'nalishidan kelib chiqqan holda – ushbu statistik ko'rsatkichlar va ishlardan foydalanuvchi Statistika agentligi markaziy apparatining tegishli boshqarmalari bilan;

barcha statistik ko'rsatkichlar va ishlar bo'yicha – Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi bilan maslahatlashuvlardan o'tkazilishi va kelishilishi shart. Ushbu maslahatlashuvlar ham dastlabki ham yakuniy ma'lumotlar shakllantirilganda o'tkazilishi lozim.

36. Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari:

o'zlari mutasaddi bo'lgan statistika yo'nalishlari bo'yicha foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash natijalariga ko'ra tahliliy ma'lumotlarni tayyorlaydi;

o'zlari mutasaddi bo'lgan statistika yo'nalishlari bo'yicha hududiy statistika organlaridan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqadi va umumlashtiradi;

tahliliy ma'lumotlarni Statistika agentligining tegishli boshqarmalari bilan maslahatlashuvlardan o'tkazilishi va kelishilishi hamda Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

ehtiyojlarni aniqlash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni Statistika agentligining Ekspert-tahlil guruhi (keyingi o'rinlarda – Ekspert-tahlil guruhi) yig'ilishida ko'rib chiqish uchun tayyorlaydi.

37. Amaldagi statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturiga kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ularni qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risidagi xulosalar har tomonlama puxta va batafsil asoslangan bo'lishi shart.

38. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi:

Statistika agentligi boshqarmalari tomonidan foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash ishlarini o'z vaqtida va puxta tashkil etilishini muvofiqlashtiradi;

ehtiyojlarni aniqlash natijalari bo'yicha taqdim etilgan tahliliy ma'lumotlarni dastlabki ko'rib chiqilishini tashkil etadi;

Statistika agentligi boshqarmalari bilan birgalikda, o'rganishlar natijalari bo'yicha shakllantirilgan tahliliy ma'lumotlarni Ekspert-tahlil guruhi yig'ilishi muhokamasiga kiritadi.

39. Ichki foydalanuvchilar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar yakunlariga ko'ra, zarur hollarda ehtiyojlarni aniqlash natijalari bo'yicha avval tayyorlangan tahliliy ma'lumotlarga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

40. Statistika agentligi boshqarmalari, maslahatlashuvlar jarayonida yagona xulosa va kelishuvga erishilmagan takliflar bo'yicha o'z fikrlarini Ekspert-tahlil guruhi yig'ilishida bayon etishlari mumkin.

41. Ekspert-tahlil guruhi:

foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi;

mukammal tayyorlanmagan tahliliy ma'lumotlarni tegishli boshqarmalar tomonidan qayta ko'rib chiqilishiga ko'rsatma beradi va qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni Ekspert-tahlil guruhi yig'ilishida ko'rib chiqadi.

42. Ekspert-tahlil guruhi muhokamasi yakunlariga ko'ra, zarur hollarda, ehtiyojlarni aniqlash natijalari bo'yicha avval tayyorlangan tahliliy ma'lumotlarga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan o'zgartirishlar kiritiladi.

43. Ekspert-tahlil guruhining foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash natijalarini ko'rib chiqish bo'yicha qarorlari uning yig'ilishi bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

7-§. Tashqi foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar

44. Foydalanuvchilarning avval aniqlangan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashqi foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish va ehtiyojlarni tasdiqlash tadbirlari tashkil etiladi.

45. Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari o'zlariga birlashtirilgan yo'nalishlar yuzasidan foydalanuvchilar ehtiyojlarini o'rganish natijalari asosida kelgusi yil uchun statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi loyihasiga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha dastlabki takliflarni tayyorlaydilar.

Takliflar ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 4-5-6-namuna jadvallarga muvofiq shakllantiriladi va umumlashtirish uchun Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etiladi.

46. Taqdim etilgan takliflar asosida Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan statistika kuzatuvlari shakllari hamda Statistika dasturining dastlabki loyihalari shakllantiriladi va Ekspert-tahlil guruhi muhokamasidan o'tkaziladi.

Statistika kuzatuvlari shakllarining loyihalari Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, uslubiyatlar va statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"da belgilangan qoidalar asosida shakllantiriladi.

47. Statistika dasturi loyihasi ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 8-namuna jadvalga muvofiq, statistika kuzatuvlari shakllarining loyihalari 11-namuna jadvalga muvofiq shakllantiriladi.

48. Statistika kuzatuvlari shakllarining loyihalari tashqi foydalanuvchilar, ya'ni keng jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar o'tkazish uchun Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (keyingi o'rinlarda – *regulation* tizimi)ga kiritiladi.

Zarur hollarda, Statistika dasturi ham ushbu tizim orqali tashqi foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlardan o'tkazilishi mumkin.

49. *Regulation* tizimi orqali tashqi foydalanuvchilar tomonidan kelib tushgan takliflar sohalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishga hamda Statistika dasturiga kiritilgan statistika ishlarining bajarilishiga mas'ul bo'lgan Statistika agentligi boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Kelib tushgan takliflarni qabul qilish yoki qabul qilmaslik bo'yicha Statistika agentligi boshqarmalari tomonidan xulosalar tayyorlanadi va tegishli boshqarmalar bilan kelishiladi.

Zarur hollarda, kelib tushgan takliflar yuzasidan tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlariga aniqlik kiritish maqsadida, ular bilan bevosita, telefon yoki boshqa aloqa vositalari orqali muhokama qilish yo'li bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazilishi mumkin.

Regulation tizimi orqali kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tayyorlangan xulosalar Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasida umumlashtiriladi hamda Ekspert-tahlil guruhi muhokamasidan o'tkaziladi.

50. *Regulation* tizimi orqali kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra tahliliy ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish lozim deb topilganda, ushbu Namunaviy tartibning 3-4-boblarida belgilangan talablarga muvofiq tayyorlangan tahliliy ma'lumotlarga, statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi loyihalariga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan qayta o'zgartirishlar kiritiladi.

51. Ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha har bir taklif muallifiga ular tomonidan taqdim etilgan takliflarning qabul qilinganligi yoki qabul qilinmaganligi to‘g‘risida ushbu takliflarni ko‘rib chiqqan Statistika agentligining mas‘ul boshqarmasi tomonidan *regulation* tizimi orqali asoslantirilgan javob xatlari yuboriladi.

5-bob. Statistika ma’lumotlarini shakllantirish maqsadlarini belgilash

52. Ehtiyojlarni o‘rganish bosqichining uchinchi jarayoni doirasida:

foydalanuvchilarning avval aniqlangan ehtiyojlarini va o‘tkazilgan maslahatlashuvlarni hisobga olgan holda, ular tomonidan talab etilgan statistika ma’lumotlari (ko‘rsatkichlar)ni o‘z ichiga olgan Statistika dasturining dastlabki loyihasi yanada takomillashtiriladi;

foydalanuvchilar bilan kelgusi yil uchun taklif etilayotgan Statistika dasturi va uning tavsiflari ularning ehtiyojlariga muvofiqligi yuzasidan kelishish ishlari amalga oshiriladi.

Ushbu jarayonlar Ehtiyojlarni o‘rganish bosqichining ikkinchi jarayoni hisoblangan maslahatlashuvlar o‘tkazish va ehtiyojlarni tasdiqlash (mazkur Namunaviy tartibning 4-bobi) bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar bilan parallel ravishda ham amalga oshirilishi mumkin.

53. Statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadlarini belgilashda ma’lumotlarning maxfiylik jihatlari, ya’ni respondentlarga tegishli birlamchi ma’lumotlarning oshkor etilmasligi lozimligi va ularni shakllantirish uchun zarur resurslarning mavjudligi hisobga olinadi.

8-§. Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda Statistika dasturi loyihasini takomillashtirish

54. Sohalar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirishga mas‘ul bo‘lgan Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari tomonidan foydalanuvchilar ehtiyojlarini o‘rganishlar natijalari bo‘yicha tayyorlangan tahliliy ma’lumotlar, maslahatlashuvlarda kelib tushgan takliflar va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda:

statistika kuzatuvlarining shakllariga taklif etilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 4-5-namuna jadvallarga muvofiq;

Statistika dasturiga kiritish uchun taklif etilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 6-, 8-namuna jadvallarga muvofiq takomillashtiriladi.

55. Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari tomonidan tayyorlangan barcha tahliliy ma’lumotlar va loyihalar Ekspert-tahlil guruhi yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi.

56. Ekspert-tahlil guruhi:

kelgusi yil uchun statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi loyihalari bo‘yicha takliflarni atroflicha ko‘rib chiqadi va natijalari bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi;

mukammal tayyorlanmagan hujjatlar loyihalarini tegishli bo'linmalar tomonidan qayta ko'rib chiqilishiga ko'rsatma beradi va takomillashtirilgan loyihalarning ko'rib chiqilishini tashkil etadi;

zarur hollarda, statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi loyihalari bo'yicha vazirlik va idoralar vakillarining o'z takliflari bilan Ekspert-tahlil guruhi yig'ilishida ishtirok etishini ta'minlaydi;

statistik ko'rsatkichlar bo'yicha metama'lumotlarni shakllantirish va ularni takomillashtirish bo'yicha tayyorlangan takliflarni ko'rib chiqadi.

57. Ekspert-tahlil guruhi tomonidan statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi loyihalarini ko'rib chiqishda:

statistika organlari tomonidan amalda shakllantirilayotgan statistik ko'rsatkichlar hamda Statistika dasturiga muvofiq bajarilayotgan va foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan statistika ishlari tarkibi;

kelgusi yil uchun yangidan kiritilishi yoki bekor qilinishi taklif etilayotgan statistika kuzatuvlari shakllari, shuningdek, mavjud statistika kuzatuvlari shakllariga yangidan kiritiladigan, takomillashtiriladigan va bekor qilinadigan statistik ko'rsatkichlar mazmuni;

dolzarb bo'lmagan statistika kuzatuvlarini bekor qilish, yangi kuzatuvlarni tashkil etish;

kelgusi yil uchun Statistika dasturi loyihasiga kiritilishi taklif etilayotgan statistika ma'lumotlari mazmuni, tarkibi, ishlab chiqarish kesimi, davriyligi va taqdim etish muddatlari;

taklif etilayotgan statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan birlamchi axborot manbalari (*statistika hisoboti va kuzatuvlari shakllari, ma'muriy ma'lumotlar*)ni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi va muhokama etiladi.

58. Ekspert-tahlil guruhi muhokamasi yakunlariga ko'ra, zarur hollarda, ehtiyojlarni o'rganish natijalari bo'yicha avval tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar va qiyosiy jadvallarga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

59. Ekspert-tahlil guruhining kelgusi yil uchun statistika kuzatuvlari shakllari va Statistika dasturi loyihalari bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qarorlari uning yig'ilishi bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

9-§. Statistika dasturi loyihasini foydalanuvchilar ehtiyojlariga muvofiqligi yuzasidan kelishish

60. Foydalanuvchilar bilan kelgusi yil uchun taklif etilayotgan Statistika dasturi ularning ehtiyojlariga muvofiqligi yuzasidan kelishish Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (keyingi o'rinlarda – *project* tizimi) orqali amalga oshiriladi.

61. Foydalanuvchilar bilan dastlabki maslahatlashuvlardan va Ekspert-tahlil guruhi muhokamasidan o'tgan Statistika dasturi loyihasi avval ehtiyojlari o'rganilgan va maslahatlashuvlar o'tkazilgan tegishli vazirlik hamda idoralar bilan kelishish uchun *project* tizimiga kiritiladi.

62. Vazirlik va idoralar tomonidan Statistika dasturi loyihasini ko'rib chiqish va ehtiyojlarni tasdiqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Statistika dasturi loyihasini o'rganib chiqish natijasi bo'yicha taklif yoki e'tirozlar mavjud bo'lmagan taqdirda, hujjat loyihasi ushbu vazirlik yoki idora rahbarining elektron imzosi bilan kelishiladi;

Statistika dasturi loyihasiga taklif va e'tirozlar mavjud bo'lganda, ularning har biri bo'yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlanib ushbu tizimga kiritiladi hamda vazirlik yoki idora rahbarining elektron imzosi bilan tasdiqlanadi.

63. *Project* tizimi orqali vazirlik va idoralar tomonidan kelib tushgan takliflar statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishga hamda Statistika dasturiga kiritilgan statistika ishlarining bajarilishiga mas'ul bo'lgan Statistika agentligining boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Kelib tushgan barcha takliflar bo'yicha ularni qabul qilish yoki qabul qilmaslik yuzasidan Statistika agentligi boshqarmalarining xulosalari tayyorlanadi va tegishli boshqarmalar bilan kelishiladi.

Takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra ularning qabul qilingan yoki qabul qilinmaganligi to'g'risida Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan umumlashtirilgan kelishmovchilik jadvali shakllantiriladi.

64. *Project* tizimi orqali kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra, zarur hollarda, ehtiyojlarni o'rganish natijalari bo'yicha avval tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar, qiyosiy jadvallar va Statistika dasturi loyihasiga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

6-bob. Talab etiladigan statistika ma'lumotlari ro'yxatini aniqlash

65. **Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining to'rtinchi jarayoni** doirasida foydalanuvchilarning ehtiyojlariga muvofiq talab etiladigan ma'lumotlar ro'yxatini ya'ni ular nuqtai nazariga ko'ra taqdim etilishi lozim bo'lgan statistika ma'lumotlari ro'yxatini aniqlash amalga oshiriladi.

Ushbu jarayon Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining uchinchi jarayoni hisoblangan statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadlarini belgilash (mazkur Namunaviy tartibning 5-bobi) doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar bilan parallel ravishda o'tkazilishi ham mumkin.

66. Foydalanuvchilarning aniqlangan ehtiyojlarini, shuningdek, ular bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar hamda kelishuvlarni hisobga olgan holda, talab etilgan statistik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan kelgusi yil uchun Statistika dasturi va uning asosiy axborot manbai hisoblangan statistika kuzatuvlari shakllari loyihalari shakllantiriladi.

Statistika dasturining loyihasi Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan "Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi" da belgilangan qoidalar asosida shakllantiriladi.

67. Kelgusi yil uchun:

Statistika dasturining umumlashtirilgan loyihasi – Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan;

statistika kuzatuvlari shakllarining loyihalari – sohalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishga mas'ul bo'lgan Statistika agentligining boshqarmalari tomonidan shakllantiriladi.

68. Statistika dasturining loyihasida ishlab chiqariladigan va foydalanuvchilarga taqdim etiladigan statistika ma'lumotlarining:

asosiy mazmuni, tarkibi va ularni shakllantirish uchun asosiy axborot manbalarining nomi;

ishlab chiqiladigan qismi, ya'ni qanday kesimda umumlashtirilishi;

ishlab chiqish davriyligi;

tayyorlanishi bo'yicha foydalanuvchilarga taqdim etiladigan hujjat turi;

tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish muddatlari aniq va tushunarli tarzda ko'rsatiladi.

69. Statistika dasturi loyihasiga kiritilgan statistika ma'lumotlarini tavsiflovchi, ushbu Namunaviy tartibning 68-bandida keltirilgan ba'zi maqsadlar amalda foydalanilayotgan statistik mezonlarga mos kelmasligi mumkin.

Statistika ma'lumotlarini shakllantirishda qo'llaniladigan statistik mezonlar, usullar va ko'rsatkichlarni tanlash, kelishish yoki belgilash GSBPM modelining 2-bosqichi hisoblangan **Rejalashtirish** bosqichining ikkinchi (ko'rsatkichlar tavsifini rejalashtirish) jarayonida amalga oshiriladi.

70. Statistika dasturi loyihasiga kiritilgan statistika ma'lumotlarini qaysi sabablarga ko'ra shakllantirish zarurligini aniqlash va Statistika dasturining umumiy konsepsiyasini belgilash maqsadida, ushbu ma'lumotlardan istiqbolda foydalanuvchilar ro'yxati shakllantiriladi.

Ro'yxat Statistika agentligi boshqarmalari tomonidan tuziladi va unda Statistika dasturi loyihasiga muvofiq bajarilishiga o'zlari mas'ul bo'lgan har bir statistika ishlari (ma'lumotlari) bo'yicha istiqbolda ulardan foydalanuvchilarning nomi (nomi noaniq bo'lganda – toifasi) ko'rsatiladi. Ushbu ro'yxatda, shuningdek, rasmiy statistika ma'lumotlari e'lon qilinadigan asosiy manbalar (veb-saytlar, Ochiq ma'lumotlar portali, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy nashrlar va boshqalar) ham ko'rsatiladi.

Foydalanuvchilar ro'yxati ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 7-namuna jadvalga muvofiq shakllantiriladi.

71. Shakllantirilgan Statistika dasturi loyihasi va undagi statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilar ro'yxati asosida Statistika dasturining umumiy konsepsiyasi (sharhi) tayyorlanadi.

Statistika dasturi konsepsiyasida, loyihani ishlab chiqish uchun asos, uning dolzarbligi va qabul qilishning zarurligi, konseptual mazmuni hamda loyihadan kutilayotgan natija yoritib beriladi.

72. Statistika dasturining umumiy konsepsiyasi Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan shakllantiriladi.

7-bob. Taklif etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish

73. **Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining beshinch jarayonida** foydalanilayotgan ma'lumotlar manbalarining foydalanuvchilarning ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlash, ma'lumotlardan foydalanishda har qanday cheklovlarni hisobga olgan holda ularni olish shartlari va usullarini belgilash, shuningdek ko'rsatkichlarning bir-birini takrorlashi holatlarini aniqlash maqsadida, foydalanuvchilar tomonidan taklif etilayotgan ma'lumotlarning statistika organlarida mavjudligi tekshirib chiqiladi.

Shuningdek, ushbu jarayonda birlamchi statistika ma'lumotlarini yig'ish va ulardan foydalanish uchun qo'llanilayotgan huquqiy asoslar ham baholanadi.

Ushbu jarayon Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining to'rtinchi jarayoni hisoblangan talab etilayotgan statistika ma'lumotlari ro'yxatini aniqlash (mazkur Namunaviy tartibning 6-bobi) jarayonida amalga oshiriladigan tadbirlar bilan parallel ravishda o'tkazilishi ham mumkin.

74. Taklif etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligini tekshirishda:

amaldagi statistika kuzatuvlari orqali olinayotgan ma'lumotlarda talab etilayotgan statistika ma'lumotlarining mavjudligi;

amaldagi statistika kuzatuvlari bo'yicha mavjud ma'lumotlar asosida talab etilayotgan statistika ma'lumotlarini shakllantirish (hisob-kitob qilish) imkoniyatining mavjudligi;

ma'muriy va boshqa manbalardan olinadigan ma'lumotlarda talab etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligi va ushbu manbalardan kelgusida zarur ma'lumotlarni olish imkoniyatlari baholanadi.

75. Statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'muriy yoki boshqa manbalardan ma'lumotlar olish imkoniyatlarini baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

olinadigan ma'lumotlardan statistik maqsadlarda foydalanishning maqsadga muvofiqligi (masalan, ma'muriy maqsadlarda yig'ilgan ma'lumotlarning statistika ma'lumoti talablariga muvofiqligi darajasi, ularning o'z vaqtida tayyor bo'lishi va sifati, xavfsiz va uzluksiz taqdim etilishi)ni aniqlash;

ma'lumotlarni taqdim etuvchilar va statistika idoralari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini baholash;

zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari (masalan, ma'lumotlarni saqlash vositalari, birlamchi va statistika ma'lumotlarini qayta ishlash uchun zarur texnologiyalar), shuningdek ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan ma'lumotlardan foydalanish va ularni almashish uchun kelishuvlar (ma'lumotlar shakli, yetkazib berish shartlari, ilova qilinadigan metama'lumotlar, sifatni tekshirish va b.)ning mavjudligini tekshirish.

76. Mavjud manbalarni baholash natijalariga ko'ra, ma'lumotlarning zarurligidan kelib chiqqan holda barcha bo'sh joylarni to'ldirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'riladi. Bular qatoriga, ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish ham kirishi mumkin.

Mavjud manbalarni baholash natijasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish yoki yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish ehtiyoji yuzaga kelishi mumkin.

77. Mavjud ma'lumotlar asosida foydalanuvchilarning yangi statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyati yo'qligi aniqlanganda, zarur ma'lumotlarni olish uchun respondentlar imkoniyatidan foydalanish hamda statistika kuzatuv shakllariga yangi ko'rsatkichlar kiritilishi mumkin.

78. Taklif etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish natijalariga ko'ra, sohalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishga mas'ul bo'lgan Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari tomonidan ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 2-3-namuna jadvallarga muvofiq:

ushbu ma'lumotlarning amaldagi Statistika dasturi va statistika kuzatuvlari shakllarida mavjudligi yoki mavjud emasligi;

taklif etilayotgan, lekin amalda mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni tegishli manbalardan olish bo'yicha takliflar to'g'risida tahliliy ma'lumotlar shakllantiriladi.

Tahliliy jadvallar Ekspert-tahlil guruhi tomonidan ko'rib chiqiladi.

79. Ekspert-tahlil guruhi muhokamasi yakunlariga ko'ra, zarur hollarda, ehtiyojlarni o'rganish natijalari bo'yicha avval tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar, qiyosiy jadvallar va Statistika dasturi loyihasiga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

8-bob. Statistika ma'lumotlarini shakllantirish modelini ishlab chiqish

80. **Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining oltinchi jarayoni**, yangi yoki o'zgartirilgan shaklda statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonini ma'qullash uchun "Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish" bosqichidagi barcha jarayonlar natijalarini model ko'rinishida hujjatlashtirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu jarayonda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

rasmiy statistika ma'lumotlarining asosiy axborot manbai hisoblangan statistika kuzatuv shakllari va boshqa ma'muriy manbalarni belgilash, kelishish va tasdiqlash;

statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarini amalga oshirilishini belgilab beruvchi Statistika dasturining yakuniy loyihasini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlashni tashkil etish va uni ijroga qaratish.

10-§. Statistika kuzatuvlari shakllarining yakuniy loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash

81. Ehtiyojlarni o'rganish bosqichining avvalgi jarayonlarida o'tkazilgan o'rganishlar, maslahatlashuvlar va baholashlar natijalariga ko'ra statistika kuzatuvlari shakllarining yakuniy loyihalari ishlab chiqiladi.

Statistika kuzatuvlari shakllarining yakuniy loyihalari Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma" talablari asosida shakllantiriladi.

Statistika kuzatuvlari shakllarining yakuniy loyihalari Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan tayyorlanadi, manfaatdor boshqarmalar bilan kelishiladi va umumlashtirish uchun Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etiladi.

82. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi:

statistika kuzatuvlari shakllari yakuniy loyihalarini umumlashtiradi;

yakuniy loyihalarda avvalgi jarayonlar davomida va Ekspert-tahlil guruhi tomonidan berilgan takliflarning hisobga olinganligini baholaydi;

statistika kuzatuvlari shakllari loyihalarini tasdiqlash uchun tayyorlaydi;

statistika kuzatuvlari shakllarini tasdiqlash to'g'risida Statistika agentligi direktorining buyrug'i loyihasini tayyorlaydi va tasdiqlash uchun kiritadi.

83. Kelgusi yil uchun statistika kuzatuvlari shakllari har yili oktabr-noyabr oylarida Statistika agentligi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

84. Statistika kuzatuvlari shakllarini tasdiqlash to'g'risida Statistika agentligi direktorining buyrug'i huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga kiritiladi.

85. Tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan statistika kuzatuvlari shakllari, kelgusi yil hisobot davri boshlangunga qadar, ularni to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar bilan birgalikda, Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi va boshqa usullar orqali ularni taqdim etuvchi respondentlar e'tiboriga yetkaziladi.

86. Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'muriy ma'lumotlarni olish Statistika agentligi va ushbu ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida hamda Statistika dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

11-§. Statistika dasturi modelini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash

87. Statistika dasturining yakuniy modeli loyihasi Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 8-namuna jadvalga muvofiq shakllantiriladi.

88. Statistika dasturining manzilliligini ta'minlash va unda mas'ul ijrochilarni aniq belgilab qo'yish maqsadida, har bir rasmiy statistikani tayyorlovchi va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan bajariladigan ishlar alohida bo'lim, bob va bandlarga ajratilgan holda ko'rsatiladi.

Statistika ishlarini bajarishda bir-birini takrorlash holatlarini oldini olish maqsadida, Statistika dasturiga ko'rsatkichlar tarkibi, ma'lumotlarni umumlashtirish darajasi va e'lon qilinadigan ma'lumotlar turiga ko'ra aynan o'xshash bo'lgan hamda bir vaqtning o'zida rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan bajariladigan ishlar kiritilmasligi lozim.

89. Statistika dasturining yakuniy modeli loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish ushbu Namunaviy tartibning 60-62-bandlarida belgilangan qoidalarga muvofiq *project* tizimi orqali amalga oshiriladi.

Zarur hollarda, vazirlik va idoralar tomonidan bildirilgan takliflarga ko'ra, Statistika dasturi loyihasiga Statistika agentligining mas'ul boshqarmalari tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

90. Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan Statistika dasturi modeli loyihasi kelishish uchun Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashiga (keyingi o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi) taqdim etiladi.

Statistika dasturi modeli loyihasini kelishish bo'yicha ishlarni tashkil etish Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoatchilik kengashi tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarga ko'ra, zarur hollarda Statistika dasturi modeli loyihasiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

91. Jamoatchilik kengashi bilan kelishilgan Statistika dasturi loyihasi uni tasdiqlash to'g'risidagi Statistika kengashi yig'ilishi bayoni loyihasi hamda tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun belgilangan tartibda Statistika kengashiga kiritiladi.

12-§. Statistika dasturini ijroga qaratish

92. Statistika dasturi loyihasini shakllantirish jarayoni bilan bir vaqtning o'zida, Statistika dasturiga yangidan kiritilayotgan, o'zgartirilayotgan va (yoki) takomillashtirilayotgan statistika ishlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi zarurligini batafsil bayon etuvchi tahliliy ma'lumotlar shakllantiriladi.

Tahliliy ma'lumotlarda quyidagilar batafsil qamrab olinadi:

yangidan kiritilgan va qayta ko'rib chiqilgan statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan jarayonlar (*statistika kuzatuvlari shakllari, metodologik hujjatlar, metama'lumotlar va dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish yoki ularni takomillashtirish, axborot bazalarini integratsiyalash, ma'muriy ma'lumotlarni taqdim etuvchilar bilan kelishuv imzolash va b.*) va ularning istiqboldagi yechimlari;

zarur hollarda, amaldagi statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishdagi mavjud kamchiliklar va ularni hal etish yuzasidan lozim bo'lgan masalalar.

93. Tahliliy ma'lumotlar sohalar bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirishga mas'ul bo'lgan Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari tomonidan ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 9-namuna jadvalga muvofiq shakllantiriladi va statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayoniga bog'liq Statistika agentligining tegishli boshqarmalari hamda mutasaddi Direktor o'rinbosarlari bilan kelishiladi.

Tahliliy ma'lumotlar Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan umumlashtiriladi va tegishli choralarni belgilash uchun Statistika agentligi rahbariyatiga kiritiladi.

Taklif etilgan tahliliy ma'lumotlar asosida, Statistika agentligi rahbariyati tomonidan tegishli ishlab chiqish jarayonlarini tashkil etish uchun manfaatdor bo'linmalarga aniq topshiriqlar belgilanadi.

94. Statistika kengashi qarori bilan tasdiqlangan Statistika dasturini statistika organlarida ijrosini ta'minlash maqsadida Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi (keyingi o'rinlarda – Ishlab chiqish dasturi) loyihasi shakllantiriladi.

Ishlab chiqish dasturi loyihasi Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan Statistika agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda ushbu Namunaviy tartibga ilova qilinayotgan 10-namuna jadvalga muvofiq shakllantiriladi.

Loyiha Statistika agentligi markaziy apparatining unga kiritilgan ishlarning bajarilishiga mas'ul bo'linmalar bilan kelishiladi va tasdiqlash uchun Statistika agentligi rahbariyatiga kiritiladi.

95. Ishlab chiqish dasturida:

Statistika dasturida belgilangan statistika ishlarini bajarish uchun aniq yo'naltirilgan topshiriqlar;

rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun asosiy manba hisoblangan statistika kuzatuvlari shakllari ma'lumotlarini Statistika agentligi va hududiy statistika organlari tomonidan qayta ishlash muddatlari;

unda belgilangan vazifalarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan Statistika agentligining bo'linmalari aniq belgilab qo'yiladi.

96. Ishlab chiqish dasturi Statistika agentligi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqish dasturi, ijrosini ta'minlash uchun Statistika agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy statistika boshqarmalari hamda Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutiga yetkaziladi.

97. Ishlab chiqish dasturi asosida hududiy statistika boshqarmalari tomonidan hududiy statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi (keyingi o'rinlarda – Hududiy dastur) tasdiqlanadi.

Hududiy dastur hududiy statistika boshqarmalari va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan bajariladigan statistika ishlarini o'z ichiga oladi.

98. Hududiy statistika boshqarmalari va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan Hududiy dasturning o'z vaqtida va sifatli ijrosi ta'minlanadi.

Hududiy statistika boshqarmalari tomonidan har oy yakunlari bo'yicha Hududiy dasturda belgilangan ishlarning bajarilishi yuzasidan dalolatnoma rasmiylashtirilib, Statistika agentligining Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etib boriladi.

99. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi:

har oy yakunlari bo'yicha Ishlab chiqish dasturida belgilangan vazifalarning Statistika agentligi markaziy apparati bo'linmalari tomonidan bajarilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

hududiy statistika boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan dalolatnomalar ma'lumotlarining Ishlab chiqish dasturida belgilangan ishlar va ijro muddatlariga muvofiqligini o'rganib boradi;

o'rganib chiqilgan dalolatnomalarni umumlashtirish va to'lovlarni amalga oshirish uchun Moliya-iqtisodiyot boshqarmasiga taqdim etadi.

100. Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi, alohida reja asosida, joylarda kompleks o'rganishlar o'tkazish orqali hududiy statistika organlarida Ishlab chiqish dasturida belgilangan ishlarning bajarilishi holati o'rganib borilishini tashkil etadi.

101. Har chorak yakunlari bo'yicha Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan Statistika dasturining ijrosi holati to'g'risida tahliliy ma'lumotlar shakllantiriladi.


102. Statistika dasturi ijrosini ta'minlash holati natijalari har chorak yakunlari bo'yicha Statistika agentligining Hay'at yig'ilishlarida tahlil va muhokama etib boriladi, aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kelgusida oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

103. Statistika agentligi tomonidan davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlarining bajarilishi to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot berib boriladi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

104. Zarur hollarda, tahliliy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida, Statistika agentligi tomonidan ushbu Namunaviy tartibga ilova qilingan namuna jadvallarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

**“Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish” bosqichining
BLOK-SXEMASI**



Foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga
bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha
Namunaviy tartibga 2-ilova

**Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish
bosqichini amalga oshirish
SXEMASI**

Bosqich jarayon- lari	Jarayonlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddatlari (har yili)
1.1.	Foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehhtiyojlarini aniqlash	1. Barcha toifadagi foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlari aniqlanadi. 2. Aniqlash natijalari tahlil etiladi, umumlashtiriladi va ularni qabul qilish yoki qabul qilmaslik bo'yicha dastlabki takliflar tayyorlanadi.	1- iyulga qadar 1-avgustga qadar
1.2.	Foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish va ehhtiyojlarni tasdiqlash	1. Kelgusi yil uchun statistika kuzatuv shakllari va bir yillik Statistika dasturiga takliflar ishlab chiqiladi. 2. Takliflar ichki foydalanuvchilar (Agentlik tarmoq boshqarmalari va Milliy hisoblar boshqarmasi) bilan maslahatlashuvlardan o'tkaziladi. 3. Statistika kuzatuv shakllari va bir yillik Statistika dasturi bo'yicha takliflar Agentlik Ekspert-tahlil guruhi tomonidan ko'rib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi. 4. Takliflar tashqi foydalanuvchilar bilan <i>Regulation</i> tizimi orqali maslahatlashuvlardan o'tkaziladi.	10-avgustga qadar 15-avgustga qadar 1-sentabrga qadar 15-sentabrga qadar
1.3.	Statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadlarini belgilash	1. Zarur hollarda, maslahatlashuvlar natijasiga ko'ra, statistika kuzatuv shakllari va Statistika dasturi loyihalari yanada takomillashtiriladi. 2. Statistika dasturi loyihasi <i>Project</i> tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishiladi.	20-sentabrga qadar 1-oktabrga qadar
1.4.	Talab etiladigan statistika ma'lumotlari ro'yxatini aniqlash	1. Zarur hollarda Statistika dasturi loyihasi qayta takomillashtiriladi. 2. Rasmiy statistika ma'lumotlaridan istiqbolda foydalanuvchilar ro'yxati shakllantiriladi. 3. Statistika dasturining mazmuni, manbai va umumiy konsepsiyasi tartibga solinadi.	10-oktabrga qadar 15-oktabrga qadar 15-oktabrga qadar
1.5.	Taklif etilayotgan ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish	1. Taklif etilayotgan ma'lumotlar va (yoki) ularni shakllantirish imkoniyatini mavjudligi (sh.j. ma'muriy ma'lumotlar hisobiga) tekshiriladi. 2. Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanishning huquqiy asoslari (talabga javob berishi, kim ishlab chiqishi, AKT imkoniyatlari) baholanadi.	Yuqoridagi jarayonlar bilan parallel ravishda amalga oshiriladi.

Bosqich jarayon- lari	Jarayonlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddatlari (har yili)
1.6.	Statistika ma'lumotlarini shakllantirish modelini ishlab chiqish	1. Statistika kuzatuv shakllari tasdiqlanadi. 2. Statistika dasturi Jamoatchilik kengashi bilan kelishiladi. 3. Statistika dasturining yakuniy loyihasi shakllantiriladi va tasdiqlash uchun Statistika kengashiga kiritiladi. 4. Statistika hisoboti shakllari Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. 5. Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi shakllantiriladi va tasdiqlanadi. 6. Hududiy ishlab chiqarish dasturlari tasdiqlanadi.	20- oktabrga qadar 25- oktabrga qadar 1-noyabrga qadar 20-noyabrga qadar Statistika dasturi tasdiqlangandan so'ng 10 kun muddatda Ishlab chiqarish dasturi tasdiqlangandan so'ng 10 kun muddatda

**Statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish bo'yicha
foydalanuvchilardan kelib tushgan takliflarni o'rganib chiqish natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot**

[illegible]

**Foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish natijalari bo'yicha
tahliliy ma'lumot**

Foydalanuvchilar nomi (toifasi), taklifning kelib tushgan manbasi (xatning raqami va sanasi, internet va boshqalar)	Bir yillik statistika dasturiga kiritish va (yoki) taqdim etish uchun taklif etilayotgan statistika ma'lumotlari (ko'rsatkichlar)	Taklif etilayotgan statistika ma'lumotlarining Bir yillik statistika dasturida mavjud ekanligi yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Ehtiyojlarni o'rganish natijalari bo'yicha xulosa
<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlarida belgilangan vazifalar bo'yicha</i>			
<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasidan kelib tushgan so'rovlar bo'yicha</i>			
<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha</i>			
<i>Xalqaro tashkilotlarning savolnomalari bo'yicha</i>			
<i>XVJning k-MTUT tizimi doirasidagi statistika ma'lumotlari bo'yicha</i>			
<i>Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlar bazasida e'lon qilish uchun taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha</i>			
<i>Xalqaro reytinglarda yoritish uchun xalqaro hamjamiyatga taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlari bo'yicha</i>			
<i>Xorijiy davlatlar idoralari va fuqarolaridan kelib tushayotgan so'rovlar bo'yicha</i>			

Foydalanuvchilar nomi (toifasi), taklifning kelib tushgan manbasi (xatning raqami va sanasi, internet va boshqalar)	Bir yillik statistika dasturiga kiritish va (yoki) taqdim etish uchun taklif etilayotgan statistika ma'lumotlari (ko'rsatkichlar)	Taklif etilayotgan statistika ma'lumotlarining Bir yillik statistika dasturida mavjud ekanligi yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Ehtiyojlarni o'rganish natijalari bo'yicha xulosa
<i>Respublika vazirlik va idoralari bo'yicha kelib tushayotgan takliflar bo'yicha</i>			
<i>Hududiy tashkilotlardan kelib tushgan so'rovlar va takliflar bo'yicha</i>			
<i>Rasmiy statistikani tayyorlovchining tarmoq bo'linmalari takliflari bo'yicha</i>			
<i>Jismoniy va yuridik shaxslardan to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan so'rovlar bo'yicha</i>			
<i>Rasmiy veb-sayt orqali respondentlar o'rtasida statistika hisobotlari mazmuni yuzasidan o'tkazilgan so'rovlar bo'yicha</i>			
<i>Rasmiy veb-sayt orqali foydalanuvchilar o'rtasida taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlaridan qoniqish darajasini baholash yuzasidan o'tkazilgan so'rovlar bo'yicha</i>			
<i>Rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan so'rovlar bo'yicha</i>			

2024-yil uchun statistika kuzatuvlari shakllarida ko‘rsatkichlarni takrorlanish holatlarini aniqlash maqsadida
boshqa kuzatuv shakllari hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining ma‘muriy ma‘lumotlari bilan
solishtirish natijalari bo‘yicha qiyosiy jadval

Statistika kuzatuvlari shakllari va ulardagi ko‘rsatkichlar nomi	O‘zaro solishtirish natijasida ko‘rsatkichlar takrorlanayotgan statistika kuzatuvlari shakllarining nomlari	Solishtirilayotgan ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining ma‘muriy ma‘lumotlari nomlari	Statistika kuzatuvlari shakllariga yoki ma‘muriy ma‘lumotlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflar
<i>Statistika hisoboti shakllari</i>			
<i>Tanlanma kuzatuvlar shakllari (anketalar, so‘rovnomalar)</i>			

2024-yil uchun statistika kuzatuvlari shakllariga o'zgartirish kiritish uchun takliflar yuzasidan
QIYOSIY JADVAL

Amaldagi tahrir		Taklif etilayotgan tahrir		Asos	
4-xizmat (jsh) “BOZOR XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI JISMONIY SHAXSLAR BO’YICHA SO’ROVNOMA”					
So’rovnomaga o’tkazadi Проводят опрос Davlat statistika organlari Органы государственной статистики		So’rovnomani o’tkazish muddati Срок проведения опроса Chorak oxirgi oyining 12 sanasidan 20 sanasigacha Последний месяц квартала с 12-го по 20-е		4-xizmat (jsh) Choraklik Квартальная	
So’rovnomaga o’tkazadi Проводят опрос Statistika organlari Органы статистики		So’rovnomani o’tkazish muddati Срок проведения опроса Har chorakda, tasdiqlanadigan jadvalga muvofiq Ежеквартально, согласно утверждаемого графика		4-xizmat (jsh) Choraklik Квартальная	
To’ldirilmoqda		01. So’rovnomaga o’tkazilgan kuni vaqti / Дата проведения опроса 02. Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent sh. / Республика Каракалпакстан, область, г.Ташкент 03. Tuman (shahar) / Район (город) 04. So’rov o’tkazilayotgan jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor)ning JSHSHIR raqami /ПИНФЛ опрашиваемого физического лица (индивидуального предпринимателя) 05. Respondentning F.I.O. / Ф.И.О. респондента 06. Respondentning aloqa telefoni /Контактный телефон 07. So’rov o’tkazgan statistika organi nomi / Наименование органа статистики проводившего опрос 08. So’rov o’tkazgan shaxsning F.I.O./ Ф.И.О. лица проводившего опрос 09. Tashrif natijalari: 1-so’rov tugatildi, 2-respondent savollarga javob berishdan bosh tortdi, 3- boshqa faoliyat turi bilan shug’ullanganligi sababli sanoat faoliyati bilan shug’ullanmaydi, 4-mazkur manzil bo’yicha yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug’ullanmaydi / Результаты посещения: 1-опрос завершен, 2-респондент отказался отвечать на вопросы, 3-не осуществляют промышленную деятельность, так как занимаются другим видом деятельности, 4-по указанному адресу не осуществляют индивидуальную предпринимательскую деятельность Chiqarilmoqda		01. So’rovnomaga o’tkazilgan kuni vaqti / Дата проведения опроса 02. Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent sh. / Республика Каракалпакстан, область, г.Ташкент 03. Tuman (shahar) / Район (город) 04. So’rov o’tkazilayotgan jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor)ning JSHSHIR raqami /ПИНФЛ опрашиваемого физического лица (индивидуального предпринимателя) 05. Respondentning F.I.O. / Ф.И.О. респондента 06. Respondentning aloqa telefoni /Контактный телефон 07. So’rov o’tkazgan statistika organi nomi / Наименование органа статистики проводившего опрос 08. So’rov o’tkazgan shaxsning F.I.O./ Ф.И.О. лица проводившего опрос 09. Tashrif natijalari: 1-so’rov tugatildi, 2-respondent savollarga javob berishdan bosh tortdi, 3- boshqa faoliyat turi bilan shug’ullanganligi sababli sanoat faoliyati bilan shug’ullanmaydi, 4-mazkur manzil bo’yicha yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug’ullanmaydi / Результаты посещения: 1-опрос завершен, 2-респондент отказался отвечать на вопросы, 3-не осуществляют промышленную деятельность, так как занимаются другим видом деятельности, 4-по указанному адресу не осуществляют индивидуальную предпринимательскую деятельность Chiqarilmoqda	
So’rovnomaga o’tkazgan statistika organi nomi Наименование органа статистики, проводившего опрос So’rovnomaga o’tkazilgan kun, sana, oy День проведения опроса, число, месяц So’rovnomaga o’tkazilgan joyning nomi Наименование места проведения опроса Bozor xizmatlarini ko’rsatuvchi jismoniy shaxslar soni Количество физических лиц, оказывающих рыночные услуги		MHOBT kodi код СОАТО		Kuzatuv o’tkazishning aniq muddati belgilanmaganligi va boshqa kuzatuvlar bilan to’g’ri kelib qolishini oldini olish maqsadida titul varag’iga tahririy tuzatish kiritildi. Kuzatuv jarayonini sifatli amalga oshirish va kuzatuv katalogini aniq belgilab olish maqsadida, kuzatuv o’tkazish muddatini har chorakda tasdiqlanadigan jadvalga muvofiq o’zgartirish, shuningdek, kuzatuv blankasining titul varag’ida jismoniy shaxs to’g’risidagi ma’lumotlar (F.I.O, JSHSHIR, telefon raqami) bilan to’ldirish bo’yicha taklif berilmoqda.	

2024-yil uchun statistika kuzatuvlari shakllari ro‘yxati,
ulardagi ko‘rsatkichlar sonining 2023-yilga nisbatan taqqoslama jadvali

Statistika kuzatuvlari nomi				Statistika kuzatuvlari shakllaridagi koʻrsatkichlar soni		2023-yildagi koʻrsatkichlarga nisbatan farqlar yuzasidan asoslar
2023-yilda		2024-yil uchun				
abbreviatura	davriyligi	abbreviatura	davriyligi	2023-yilda	2024-yil uchun	
Statistika hisoboti shakllari						
Tanlanma kuzatuvlar shakllari						

2023-yil uchun Statistika dasturi loyihasiga kiritish uchun
takliflar bo'yicha asoslantiruvchi taqqoslama jadval

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
I QISM. IQTISODIYOT VA IJTIMOIIY SOHALAR HOLATI HAMDA RIVOJLANISHINI TAVSIFLOVCHI RASMIY STATISTIKA MA'LUMOTLARINI TAYYORLASH						
I BO'LIM. STATISTIKA AGENTLIGI TOMONIDAN SHAKLLANTIRILADIGAN RASMIY STATISTIKA MA'LUMOTLARI						
1-KICHIK BO'LIM. MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA IQTISODIY BALANSLAR						
1-bob. MILLIY HISOBLAR TIZIMI						
1.	Amaldagi dasturda					
	4. Joriy va taqqoslama narxlarda yalpi hududiy mahsulot					
	Taklif etiladi					
	4. Joriy va taqqoslama narxlarda yalpi hududiy mahsulot					
	To'ldirilmoqda					
	2022-yil uchun					
	yillik yakunlarga muvofiq choraklik yakunlarga aniqlik kiritish	O'zbekiston Respublikasi, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	yillik	tahliliy jadvallar	sentabr	ushbu ish YalMning yillik yakunlariga muvofiq choraklik yakunlarga aniqlik kiritish ishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun to'ldirilmoqda
1-§. AXBOROT-TAHLILIIY MATERIALLAR (har bir bobning oxiriga aynan shu kabi paragraflar kiritiladi)						
2-bob. IQTISODIY BALANSLAR						
3-bob. HUKUMATNING MUHIM MAQSADLI KOMPLEKS DASTURLARI VA QARORLARINI AMALGA OSHIRISH USTIDAN MONITORING OLIB BORISH UCHUN STATISTIKA MA'LUMOTLARI						
4-bob. NARXLAR VA TARIFLAR						
1.	Amaldagi dasturda					

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
	6. Viloyatlarning markaziy hududlari bo'yicha, tayyor palovning o'rtacha narxlari (12 narx(palov) “Umumiy ovqatlanish korxonalarida narxlarni ro'yxatga olish so'rovnomasi”)	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahri bo'yicha	oylik	jadval	hisobot davridan keyingi oyning 1-kuni	narxlar statistikasiga tegishli statistika hisoboti shakllari kuzatuv shakliga aylanirilganligi sababli, mazkur ishlar 2024-yil uchun Statistika dasturining 4-bobidagi 4- ish “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi” ishiga birlashtiril-ganligi sababli chiqarilmoqda.
	Taklif etiladi					
	Chiqarib tashlanmoqda 6. Viloyatlarning markaziy hududlari bo'yicha, tayyor palovning o'rtacha narxlari (12 narx(palov) “Umumiy ovqatlanish korxonalarida narxlarni ro'yxatga olish so'rovnomasi”)	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahri bo'yicha	oylik	jadval	hisobot davridan keyingi oyning 1-kuni	
2-KICHIK BO'LIM. IQTISODIYOT TARMOQLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI						
5-bob. QISHLOQ, O'RMON, BALIQCHILIK XO'JALIGI VA EKOLOGIYA						
4-§. DEHQONCHILIK						
5-§. Chorvachilik va baliqchilik xo'jaligi						
6-§. EKOLOGIYA						
6-bob. SANOAT						
7-bob. ENERGETIKA						
8-bob. SUV TA'MINOTI, KANALIZASIYA, Chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish						

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
9-bob. INVESTISIYA VA QURILISH						
10-bob. XIZMATLAR SOHASI						
11-bob. ULGURJI VA ChAKANA SAVDO						
1.	Amaldagi dasturda					
	2. <u>2021</u> -yilning yillik yakuniy ma'lumotlari asosida <u>2021-2022</u> -yillarning choraklari bo'yicha ulgurji va chakana savdo ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish	O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tovar aylanmasi turlari bo'yicha	yillik	tahliliy jadvallar	yanvar	
	Taklif etiladi					
	2. <u>2022</u> -yilning yillik yakuniy ma'lumotlari asosida <u>2022-2023</u> -yillarning choraklari bo'yicha ulgurji va chakana savdo ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish	O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tovar aylanmasi turlari bo'yicha	yillik	tahliliy jadvallar	yanvar	Davr o'zgarishi munosabati bilan tahririy tuzatish kiritilmoqda
12-bob. TRANSPORT						
13-bob. ALOQA VA AXBOROTLASH TIRISH						
14-bob. MOLIYA VA SUG'URTA FAOLIYATI						
15-bob. AHOLI PUNKTLARINI OBODONLASH TIRISH						
16-bob. TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY-XO'JALIK FAOLIYATI						
17-bob. IQTISODIYOT VA IJTIMOIIY SOHANING TANLANMA STATISTIKA KUZATUVLARI TARMOG'I						
3-KICHIK BO'LIM. IJTIMOIIY SOHA						

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
18-bob. TA'LIM VA ILMIY FAOLIYAT						
19-bob. SOG'LIQNI SAQLASH						
20-bob. MADANIYAT VA SAN'AT						
21-bob. JISMONIY TARBIYA VA SPORT						
22-bob. IJTIMOIIY HIMOYA						
23-bob. JAMOATChILIK FAOLIYATI INDIKATORLARI						
24-bob. AHOLINING IQTISODIIY FAOLLIGI, XODIMLARNING ISH HAQI VA MEHNAT SHAROITLARI						
25-bob. DAROMADLAR VA AHOLI TURMUSH DARAJASI						
26-bob. DEMOGRAFIK KO'RSATKICHLAR						
24-§. AHOLI SONI VA TARKIBI						
27-bob. AHOLINING TABIIY HARAKATI						
25-§. AHOLI MIGRASIASI						
28-bob. TUMANLARNING MA'MURIY-HUDUDIIY O'ZGARISHLARI						

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
29-bob. OILA						
4-KICHIK BO'LIM. STATISTIKA REGISTRI						
30-bob. KORXONA VA TASHKIOTLARNING YAGONA DAVLAT REGISTRI						
II BO'LIM. RASMIY STATISTIKANI BOSHQA TAYYORLOVCHILARI TOMONIDAN SHAKLLANTIRILADIGAN RASMIY STATISTIKA MA'LUMOTLARI						
31-bob. IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI						
32-bob. SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI						
33-bob. KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI						
34-bob. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI						
35-bob. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI						
36-bob. QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI						
37-bob. EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI						
38-bob. MARKAZIY BANK						

III BO‘LIM. NORMATIV VA METODOLOGIK ASOSLARNI TAKOMILLASH TIRISH, RASMIY STATISTIKA SOHASIDA MUVOFIQLASH TIRISH VA FUNKSIONAL TARTIBGA SOLISH

T/r	Bajariladigan ishlar nomi	Ishlab chiqarish asoslari (dastur, reja, buyruq va b.)	Davriyligi	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuvchilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
28-§. IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI						
29-§. SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI						
30-§. KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI						
31-§. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI						
32-§. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI						
33-§. MADANIYAT VAZIRLIGI						
34-§. QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI						

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuvchilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
35-§. EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI						
36-§. SOLIQ QO'MITASI						
37-§. MARKAZIY BANK						

**Vazirlik va idoralar huzuridagi qo'mitalar, agentlik va jamg'armalar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar alohida ajratib ko'rsatiladi.*

**41-bob. BOSHQA VAZIRLIKLAR, IDORALAR VA TASHKILOTLAR TOMONIDAN STATISTIKA AGENTLIGIGA
TAQDIM ETILADIGAN MA'MURIY VA BOSHQA MA'LUMOTLAR***

38-§. ADLIYA VAZIRLIGI						
39-§. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI						
40-§. SPORT VAZIRLIGI						
41-§. MUDOFAA VAZIRLIGI						
42-§. FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI						
43-§. SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI						
44-§. QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI						
45-§. TRANSPORT VAZIRLIGI						
46-§. ENERGETIKA VAZIRLIGI						

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma’lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo’yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
47-§. RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO’MITASI						
48-§. KONSTITUSIYAVIY SUD						
49-§. OLIY SUD						
50-§. DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI						
51-§. DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI CHEGARA QO’SHTINLARI						
52-§. MILLIY GVARDIYA						
53-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRASIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALAR AGENTLIGI						
54-§. IJTIMOIIY HIMOYA MILLIIY AGENTLIGI						
55-§. ISTIQBOLLI LOYIHALAR MILLIIY AGENTLIGI						
56-§. OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI INNOVASION RIVOJLANISH AGENTLIGI						
57-§. DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI						
58-§. MADANIY MEROS AGENTLIGI						
59-§. XALQ BANKI						
60-§. INSON HUQUQLARI BO’YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIIY MARKAZI						
61-§. O‘ZBEKISTON MILLIIY TELERADIOKOMPANIYASI						

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv-chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6	7
62-§. A.NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI						
63-§. "O'ZBEKISTON TEMIP YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI						
64-§. "UZTRANSGAZ" AKSIYADORLIK JAMIYATI						
65-§. "ASIA TRANS GAZ" QK MChJ						
66-§. "UZBEKISTAN AIRPORTS" AKSIYADORLIK JAMIYATI						
67-§. "UZBEKISTANAIRWAYS"AKSIYADORLIK JAMIYATI						
68-§. "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ						
69-§. "O'ZBEKOZIQOVQATZAXIRA" UYUSHMASI						
70-§. "TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI						
71-§. "RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI AGROSANOAT BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI						
72-§. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI						
73-§. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVAR-XOMASHYO BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI						
74-§. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHI, VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHAR, SHAHARLAR VA TUMANLAR HOKIMLIKLARI						

**Vazirlik va idoralar huzuridagi qo'mita, agentlik va jamg'armalar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar alohida ajratib ko'rsatiladi.*

IV-BO‘LIM. RASMIY STATISTIKA TO‘PLAMLARI

T/r	Rasmiy statistika to‘plamlari nomi	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuv-chilarga ma’lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo‘yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6
42-bob. STATISTIKA AGENTLIGI TOMONIDAN NASHR ETILADIGAN RASMIY STATISTIKA TO‘PLAMLARI					
43-bob. RASMIY STATISTIKANI BOSHQA TAYYORLOVCHILARI TOMONIDAN NASHR ETILADIGAN RASMIY STATISTIKA TO‘PLAMLARI					
75-§. SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI					
76-§. QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI					
77-§. MARKAZIY BANK					

V-BO‘LIM. OCHIQ STATISTIKA MA’LUMOTLARINING XALQARO ALMASHINUVI

**5-KICHIK BO‘LIM. XALQARO TASHKIOTLARNING SAVOLNOMALARIGA MUVOFIQ
TAQDIM ETILADIGAN STATISTIKA MA’LUMOTLARI**

T/r	Taqdim etiladigan ma’lumotlar nomi va tarkibi	Ma’lumotlar taqdim etiladigan xalqaro tashkilotlar nomi	Davriyligi	Tashqi foydalanuv-chilarga ma’lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo‘yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6
44-bob. STATISTIKA AGENTLIGI					
45-bob. RASMIY STATISTIKANI BOSHQA TAYYORLOVCHILARI					
78-§. IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI					
79-§. SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI					

T/r	Taqdim etiladigan ma’lumotlar nomi va tarkibi	Ma’lumotlar taqdim etiladigan xalqaro tashkilotlar nomi	Davriyligi	Tashqi foydalanuv-chilarga ma’lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo’yicha asoslantirish
1	2	3	4	5	6

--	--	--	--	--	--

--	--	--	--	--	--

T/r	Bajariladigan ishlar nomi	Davriyligi	Tashqi foydalanuv-chilarga ma’lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo’yicha asoslantirish
1	2	3	4	5

--	--	--	--	--

T/r	Bajariladigan ishlar nomi	Davriyligi	Tashqi foydalanuv- chilarga ma'lumotlar taqdim etish muddatlari	Takliflar bo'yicha asoslantirish
1	2	3	4	5

87-§. IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO'MITASI				

88-§. MARKAZIY BANK				

2023-yil uchun
Statistika dasturiga asosan ishlab chiqariladigan statistika ma'lumotlaridan istiqbolda foydalanuvchilar ro'yxati

[illegible]

2024 -yil uchun Statistika dasturi

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish muddatlari
1	2	3	4	5	6
I QISM. IQTISODIYOT VA IJTIMOIIY SOHALAR HOLATI HAMDA RIVOJLANISHINI TAVSIFLOVCHI RASMIY STATISTIKA MA'LUMOTLARINI TAYYORLASH					
I BO'LIM. STATISTIKA AGENTLIGI TOMONIDAN SHAKLLANTIRILADIGAN RASMIY STATISTIKA MA'LUMOTLARI					
1-KICHIK BO'LIM. MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA IQTISODIY BALANSLAR					
1-bob. MILLIY HISOBLAR TIZIMI					
1-§. AXBOROT-TAHLILIIY MATERIALLAR (har bir bobning oxiriga aynan shu kabi paragraflar kiritiladi)					
2-bob. IQTISODIY BALANSLAR					
3-bob. HUKUMATNING MUHIM MAQSADLI KOMPLEKS DASTURLARI VA QARORLARINI AMALGA OSHIRISH USTIDAN MONITORING OLIB BORISH UCHUN STATISTIKA MA'LUMOTLARI					
4-bob. NARXLAR VA TARIFLAR					
2-KICHIK BO'LIM. IQTISODIYOT TARMOQLARI FAOLIYATINING ASOSIIY KO'RSATKICHLARI					
5-bob. QISHLOQ, O'RMON, BALIQCHILIK XO'JALIGI VA EKOLOGIYA					
4-§. DEHQONCHILIK					

T/r	Ishlar nomi va tarkibi	Ishlab chiqiladigan qism	Davriyligi	Hujjatning turi	Tashqi foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish muddatlari
1	2	3	4	5	6
5-§. ChORVACHILIK VA BALIQCHILIK XO'JALIGI					
6-§. EKOLOGIYA					
6-bob. SANOAT					
7-bob. ENERGETIKA					
8-bob. SUV TA'MINOTI, KANALIZASIYA, ChIQINDILARNI YIG'ISH VA UTILIZATSIYA QILISH					
9-BOB. INVESTITSIYA VA QURILISH					
10-bob. XIZMATLAR SOHASI					
11-bob. ULGURJI VA CHAKANA SAVDO					
12-bob. TRANSPORT					
13-bob. ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH					
